



BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KREATIV SALOHIYATINI OSHIRISHDA MUAMMO VA YECHIMLAR

Ne'matov Bo'ritosh Saydullayevich

O'zbekiston Respublikasi, Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6621444>

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022

Accepted: 02nd June 2022

Online: 05th June 2022

KEY WORDS

zamonaviy ta'lif, kreativ ta'lif, kreativlik sifatlari, jamoa, dars, to'garak, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, interfaol metod.

ABSTRACT

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining dars va darsdan tashqari ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatini tashkillashtirishdagi kreativ salohiyatini oshirishda inobatga olish lozim bo'lgan jihatlar, muammo va yechimlar muhokama etiladi.

Ta'lif va tarbiyaning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishi va takomillashuvini innovatsiyalarning turli shakllarini tadqiq etmasdan, bugungi kunda mutaxassisni nimaga va qanday tayyorlashga bir qator yondashuv va munosabatlarni tamoyillar asosida ko'rib chiqmasdan amalga oshirish mumkin emas. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'no mazmuni tushunib olishi talab etiladi. Kreativlik (lot , ing. "create" - yaratish, "creative" - yaratuvchi , ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarashga tayyorlikni tavsiylovchi va

mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati .

Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik - o'z qiymatiga ega orginal g'oyalar majmui"dir. Gardner esa o'z tadqiqotlarida "kreativlik-shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o 'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim". Olimning yondoshuviga ko'ra kreativlik "muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish "demakdir .

Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z mutaxassisligini chuqur bilishi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishi, uslubiy modellarni to'g'ri tanlash qobiliyati, ta'lif jarayonidagi ta'sir mazmuni va usullarini loyihalashni bilishi zarur. Shundagina yetuk mutaxasis bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativlik sifatlarini amalga oshirishda jamoanining



o'rni beqiyos. Bunda o'qituvchi o'quvchilar jamoasini ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadni ko'zda tutuvchi, birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi, umumiy saylab qo'yilgan organiga ega bo'lgan, mustahkamlik, umumiy javobgarlik bilan ajralib turuvchi, barcha a'zolarimng huquq va majburiyatlarda tengligi sharoitida majburiy aloqadorlikka ega bo 'lgan o'quvchilar guruhini tashkil qilishda ijodiy yondashgan holda amalgalash oshirsa ko'zlagan maqsadga erishiladi.

Yuksak ma`naviyatli yoshlarni tarbiyalash va ularning ma`naviy barkamolligini shakllantirish vazifasi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri ekanligi hech kimga sir emas.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'qituvchining ijodkorligini nomoyon qiladigan jarayon bu- darsdir. Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o'quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o'quvchilarning mashg'ulot jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatları va ma`naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchining ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishda ta'limning yordamchi shakli to'garaklarda foydalanish maqsadlidir.

Fan to'garaklar yo'nalishi, mazmuni, ish metodi, o'qish vaqt va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, o'qishga ijobjiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi. Bu bilan o'qituvchining ijodkorlik sifatlarini ham shakllantiradi. Chunki to'garak ijodiy

yondoshgan holda tashkil qilinadi. To'garak rahbari(boshlang 'ich sinf o 'qituvchisi) to'garak mashg'ulotida samaradorlikka erishish uchun to'garak mashg'uloti ishlanmasida ijodkorlikka alohida e'tibor qaratishi, uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tuzishi lozim.

Misol uchun to'garaklarni tashkil etishda boshlang'ich sinf o'qituvchisi " AJIL" ("Amaliy jamoaviy ijodiy loyihibar") strategiyasi o'quvchilarda ijodiy faoliyat ko'nikma va malakalarini, jamoaviy ijodiy ishlarni tashkil etish ishlarni tashkil etish tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish, jamoaviy ijodiy loyiha (ish)larning shakllari to'g'risidagi tushunchani hosil qilishga ko'maklashishga xizmat qiladi. "Ajil" texnologiyasini to'garak jarayonida "Men – jamoaviy ish tashkilotchisiman" mavzusidagi blitz-o'yin o'tkazilgandan so'ng qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchining ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishda yana bir jihat ma`naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'rni juda kattadir. Ma`naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish ham pedagog faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi ma`naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga ham ijodiy yondasha olishi zarur. Bunda u quyidagilarga e'tiborni qaratishi lozim:

-ma`naviy-ma'rifiy ishlarni maqsaga muvofiq, izchil, uzluksiz va tizimli tashkil etish;

-o'quv yili uchun puxta asoslangan ma`naviy-ma'rifiy ishlar rejasini ishlab chiqishi;

-rejadan talabalarning ehtiyoj va qiziqishlariga mos keladigan hamda dolzarb mavzulardagi muammolarga bag'ishlangan tadbirlarning o'rinni olishiga erishish;



- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning reja uchun emas, balki talabalarning ehtiyojlarini qondirish, ularni shaxs va mutaxassis sifatida shakllanishlarini ta'minlash maqsadida tashkil etish;
 - ma'naviy-ma'rifiy ishlarni ularning yo'nalishi, mazmuni, xarakteriga, ko'lami va xususiyatlariiga ko'ra turli shakllardan interfaollik asosida tashkil etilishiga erishish;
 - har bir ma'naviy-ma'rifiy tadbirning aniq maqsad asosida tashkil etilishi va albatta, kutilgan natijani kafolatlay olishini ta'minlash;
 - ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va o'tkazishda akademik guruhning barcha talabalari birdek faol ishtirok etishlariga erishish.
- O'zbekiston xalqi o'tmishda ham, hozirda ham har jihatdan barkamol bo'lgan sog'lom avlodni shakllantirish masalasini o'z oldiga oliy maqsad qilib qo'yan, chunki har qanday mustaqil davlatning taraqqiyoti kelajak egalari bo'lgan yoshlarga, ularning dunyoqarashlariga bog'liqdir. Demak, o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash jarayoni boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik faoliyatida kreativ salohiyatini oshirishda murakkab, uzlusiz va serqirra jarayon bo'lib, ularning kelgusi oilaviy hayotga to'laqonli tayyor bo'lishi uchun eng muhim shartlardan biri o'quvchilarda o'ziga xos sog'lom turmush tarzini tarkib toptirish zarur va muhimdir. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi sog'lom avlodni shakllantirishda ham kreativ yondasha olishi zarur. Bunda u quyidagilarga e'tiborni qaratishi lozim:
- Sog'lom turmush tarzining asosiy yo'nalishlari quyidagilar:
- Shaxsiy va jamoa gigiyenasi qoidalariga amal qilish;
 - Jismoniy faollik;

- Kun tartibiga rioya qilish;
- Zararli odatlardan tiyilish;
- Sog'lom ovqatlanish;
- Mehnat qilish va dam olish;
- Muomala madaniyati;
- Ruhiy xotirjamlik;
- Tibbiy madaniyatlilik;
- Jinsiy tarbiya.

Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilar jamoasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishning juda oddiy uslubini bilib olishi va ularni dars va darsdan tashqari tarbiyaviy jarayonlarda qo'llab bormog'i lozim.

XULOSA

Darhaqiqat, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tarbiya jarayonlarida ham kreativ yondashuv va kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish zarur. Bunda o'qituvchidan sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilishda noan'anaviy usullardan keng foydalangan holda amalga oshirishi talab qilinadi. O'qituvchida kreativlikni rivojlantirish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. O'qituvchida kreativlikni rivojlantirishda turli xil interfaol metodlarni bilishi va o'zing pedagogic faoliyati davomida samarali foydalanishi lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib o'rganish, o'z ustida tinimsiz ishslash orqali shakllantiriladi va u astasekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har bir o'qituvchi ijodiy o'z-o'zini tarbiyalay olishi zarur. Bunda o'zini o'ziga xos ijodiy shaxs sifatida anglash, uni yanada takomillashtirish va moslashtirishni talab qiladigan kasbiy va shaxsiy fazilatlarini aniqlash, shuningdek uzlusiz tizimda o'z-o'zini takomillashtirishning uzoq muddatli



dasturini ishlab chiqish o'z-o'zini tarbiyalash demakdir.

References:

1. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Matnazarova K., Shirinov M., Hafizov S. "Umumiy pedagogika". Darslik. Toshkent, "Innovasiyon rivojlanish nashriyoti- matbaa uyi", 2020, 526 b.
- 2.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4
4. M.Ulmonboyeva va A. To'rayev "Kreativ pedagogika asoslari". O'quv uslubiy majmua Toshkent, 2016, 193 b.
5. Ne'matov B.S. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ salohiyatni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 9 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423. 899-907.
6. Холийгитова, Н. Х. (2019). Ижтимоий психологияда ўқув фаолияти мотивациясининг ривожланиш омиллари (илемий адабиётлар таҳлили). Современное образование (Узбекистан), (11 (84)), 20-25.
7. Fayazova, F. S., Otajonova, O. A., & Islamova, F. S. (2021). The Role Of Art Therapy In The Formation Of Healthy Living Skills In Adolescents. NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO, 15291-15295.
8. Islomova, F., & Fayozova, F. (2021). Family traditions in vocational guidance, a guarantee of preparing young people for independent living. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 34-38.
9. Sh, I. F., & Vaniyan, S. B. (2021). THE ROLE OF PARENTS IN FORMING SPIRITUAL EDUCATION ON THE BASIS OF CREATIVE APPROACHES. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(12), 162-165.
10. Sobirov, J., & Yunusova, H. (2022). MA 'RIFATLI JAMIYAT YARATISHDA O 'ZBEK YOSHLARINING SALOHIYATI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(2), 11-14.